TOSHKENT SHAHAR OLMAZOR TUMANI HOKIMINING QARORI

Toshkent 100095, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (71) 207-31-41

2022 - yil 28 - oktabr 662-14-197-Q/22 Olmazor tuman hokimligi

Olmazor tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2023-yilga ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunining 7, 17-moddalari, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 25-moddasi “Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunining 8-moddasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-iyuldagi “Aholi bandligini ta’minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3856-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2023-yilga ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish bo‘yicha tuman maxsus komissiyasining 2022-yil 15-sentabrdagi 1-son bayonini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Olmazor tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumandagi 186 ta tashkilotlarda aholining quyidagi toifalari uchun jami 1595 ta ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilsin, bunda:

14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish

o‘rinlari – 520 ta;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlaganidan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek oliy ta’lim muassasalarini davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari - 634 ta;

safarbarlik chaqiriq zahirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari - 102 ta;

nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo‘yicha attestasiyadan o‘tkazilgan va xodimga ularning sog‘lig‘i holatini va mehnat faoliyatiga to‘g‘ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to‘siqsiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari –106 ta;

pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo‘lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari – 150 ta;

jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari – 76 ta;

odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish o‘rinlari xarakterli talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rinlari – 7 ta;

2. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish majburiyati yuklangan tashkilotlar ro‘yxati ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tashkilotlar rahbarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlangan Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq ish o‘rinlari tashkil etilishi ta’minlansin.

Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlari yaratilsin.

Yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining 20 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorligi ta’minlansin, shuningdek bu haqida yil boshlangunga qadar, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi xabardor qilinsin.

Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot tomonidan calendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlansin va bu haqda tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi birinchi chorak tamom bo‘lgandan

keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

Tashkilot tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaraladi.

4. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagan tashkilotning mansabdor shaxsiga, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

Muhtojlar uchun ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarori bajarilmaganligi uchun jarima to‘lash tashkilotni zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini yaratish bo‘yicha majburiyatdan ozod qilmaydi.

5. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasii Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”ga buyrug‘iga asosan subsidiyalar ajratib berish amaliyoti joriy etilganligini hisobga olib, “Ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash” to‘g‘risidagi normani korxonalarga ma’lumot berilsin.

6. Ushbu qarorning birinchi bandida ko‘rsatilgan shaxslar ishga joylashtirilgan ish o‘rinlari bo‘lajak davrga zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini aniqlashda hisobga olinishi hamda zahiraga olingan ish o‘rinlari soni ushbu ish o‘rinlariga qabul qilingan kundan boshlab 3 yil mobaynida hisobga olinishi belgilab qo‘yilsin.

7. Olmazor tumani aholi bandligiga ko‘maklashish markazi (X.Rayxonov):

besh kun muddatda ushbu qarorni zahira o‘rni yaratayotgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazilsin va tuman hokimining qarori bajarilishi ustidan nazorat o‘rnatilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran qonuniy kuchga kiradi.

9. Olmazor tuman hokimining 2021-yil 22-oktabrdagi “Olmazor tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2022-yilga ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish to‘g‘risida”gi 248-14-197-Q/21-sonli qarori o‘z kuchi yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A. Umarxonov**

Olmazor tuman hokimining
2022 yil 28 oktabrdagi
662-14-197-Q/22-son qaroriga
1-ilova

